

Tarbiya

Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, shu jumladan interaktiv shakl va usullarini qo'llashning maqsadi nima?

- A) O'quvchilarni passiv dars olishga majbur qilish
- B) O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash.
- C) Faqat an'anaviy metodlarni takrorlash
- D) Dars jarayonini cheklash

Tarbiya ishlarini olib borishda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini hisobga olish qanday natija beradi?

- A) Har bir o'quvchi uchun shaxsiy yondashuv shakllanadi.
- B) Barcha o'quvchilarga yagona metod qo'llaniladi
- C) Faqat yoshga qarab guruhlash amalga oshiriladi
- D) Nazariy bilimlarga urg'u beriladi

Ko'p madaniyatli muhitda bag'ri kenglik va odob-axloqni shakllantirish uchun qanday yondashuv zarur?

- A) Faqat bitta madaniyatga moslashish
- B) Madaniy xilma-xillikni hurmat qilish.
- C) Nazariy darslarga urg'u berish
- D) Qattiq intizomni kuchaytirish

O'quvchilarda mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantirishning eng samarali usuli qaysi?

- A) Passiv dars o'tkazish
- B) Qattiq intizomni joriy etish
- C) Faqat nazariy bilim berish
- D) Faol ishtirok va loyiha ishlari.

Guruh jarayonlarini boshqarish va ijobiy munosabatlarni shakllantirishning asosiy natijasi nima?

- A) Hamjihatlik va do'stona muhitni ta'minlash.
- B) O'quvchilar o'rtasida raqobatni kuchaytirish
- C) Nazariy bilimni oshirish
- D) Qattiq intizomni joriy etish

Estetik tarbiyaning maqsadi nima?

- A) O'quvchilarning san'at va atrof-muhitga bo'lgan hurmatini shakllantirish.
- B) Sport bilan shug'ullanishni rivojlantirish
- C) Tanqidiy fikrlashni shakllantirish
- D) Faqat madaniy tadbirlar uyushtirish

Tarix o'qituvchisi har bir darsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar haqida so'z yuritadi. O'quvchilarning e'tibori va his-tuyg'ulariga ta'sir etuvchi nutqi orqali ularning xulq-atvorini asta-sekin o'zgartiradi. Bu jarayon sezilmas va ong ostida kechadi. Ushbu holat qaysi kommunikativ qobiliyat turiga xos?

- A) O'quvchilarni ishontirish
- B) O'quvchilar ongiga ta'sir etish
- C) O'zgalar harakatiga taqlid qilish

D) Nazorat va baholash orqali yondashuv

Ona tili fani o'qituvchisi darsda izchil qatnashib, topshiriqlarni to'g'ri bajargan o'quvchini butun sinf oldida maqtab, kichik sovg'a bilan rag'batlantiradi. Biroq, sinfda tartibni buzgan o'quvchini ogohlantiradi. Bu pedagogik ta'sir shakli nima bilan tavsiflanadi?

- A) Rag'bat va jazolash
- B) Jamoatchilik fikri
- C) Talab
- D) Axloqiy nazorat

Xushmuomalalik qaysi omil bilan bog'liq?

- A) Faqat axloqiy me'yorlar bilan
- B) Pedagogik madaniyat va insoniy fazilatlar bilan
- C) Sinf muhitining qoidalari bilan
- D) Faqat so'zlash madaniyati bilan

Pedagogik faoliyatda nizolar ham bo'lib turadi. Muassasada bir nechta xodimlar o'rtasida davomli nizolar kuzatilmoqda edi. Direktor o'qituvchilardan bittasini boshqa ishga ya'ni binoni ichidagi boshqa joyga, ikkinchisini esa yana qandaydir ish bilan band qildi, bu xodimlarning ish soatlarini, ish xonalarini va vazifalarini o'zgartirib, ularni bir-biridan uzoqlashtirdi. Qaysi usul qo'llandi?

- A) Tinch yo'l bilan kelishish
- B) O'zaro ajratish
- C) Suhbat asosida hal qilish
- D) Ogohlantirish

Moslashtiring

- 1) Ta'lim samaradorligini oshirish
- 2) Ozlashtirishni baholash va qayta taqdim etish
- 3) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish
- A) Muayyan oquvchining ta'lim olishdagi qiyinchiliklari to'g'risida tegishli soha mutaxassislari bilan maslahatlashish
- B) O'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish
- C) Bolalar bilan muloqat qilish, ularning qadr-qimmatini tan olish
- A) 1-A, 2-B, 3-C
- B) 1-B, 2-A, 3-C
- C) 1-C, 2-A, 3-B
- D) 1-C, 2-B, 3-A

#O'qituvchi o'quvchilarni guruhlariga ajratib, bir necha yo'nalishlarda loyiha ishlari mavzularini taqdim etdi. Quyida berilganlardan ekologik loyiha turiga kiradigan variantlarni belgilang:

- 1. Maktabda chiqindilarni saralab yig'ish ishlarini tashkil etish
- 2. Maktab hududidagi sport maydonchasini yoritish uchun shamol generatorini yaratish
- 3. Tog' chang'i dam olish zonasiga sayohat harajatlarini hisoblash
- 4. Maktabda "Ekologik muammolar" mavzusidagi tadbirni tashkillashtirish
- A) 1, 4

- B) 1, 3
- C) 2, 3
- D) 2, 4

.....tarbiyalanganlikning yuqori darajasini beigilovchi vosita bo'lib, uning talablarini bir maromda o'quvchi ongiga singdirib borish uchun har bir o'quvchi, sinf, maktab jamoasi harakat qiladi.da ulkan tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun o'qituvchidan nihoyatda mohirona talabchanlik, ijobiy ta'sir etish vositalarining birligiga erishish talab etiladi. Nuqtalar o'rniga mos tushunchani tanlang.

- A) Psixologik tizim
- B) Axloqiy tarbiya
- C) Texnologik tizim
- D) Estetik tizim

"Avesto"da bolalarni o'qitish va tarbiyalash qoidalari qanday tartibda berilgan?

1.O'qish va yozishga o'rgatish; 2.Diniy va axloqiy tarbiya; 3.Jismoniy tarbiya;

- A) 2,3,1
- B) 1,2,3
- C) 3,2,1
- D) 3,1,2

Mulohazalarni aniqlang

1. Layoqat va iste'dod mudroq holatda bo'lib, uning uyg'onishi uchun oilada va ta'lim-tarbiya muassasalarida qulay sharoit yaratish talab etiladi.

2. Estetik tarbiyani tashkil etish jarayonida o'qituvchi ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor bo'lishi, ularga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimizdan kelib chiqib belgilangan axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini bilishi, ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qiqarlar) asosida o'quvchilarda axloqiy ong va madaniyatni shakllantirishi

- a) To'g'ri b) Noto'g'ri
- A) 1a, 2a
- B) 1b, 2b
- C) 1a, 2b
- D) 1b, 2a

O'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil qilishda yordam berish va qo'llab-quvvatlash O'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish Quyida kasb standartining qaysi sohasiga tegishli mehnat harakatlari berilgan?

- A) O'quv jarayonini rejalashtirish
- B) Ta'lim samaradorligini oshirish
- C) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish
- D) O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish

O'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil qilishda yordam berish va qo'llab quvvatlash O'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi

madaniyatini rivojlantirish . Quyida kasb standartining qaysi sohasiga tegishli mehnat harakatlari berilgan?

- A) O'quv jarayonini rejalashtirish
- B) Ta'lim samaradorligini oshirish
- C) Tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish
- D) Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash

O'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonini boshqarish bosqichlari qaysilar?

- 1) Rejalashtirish. 2) Tashkil etish. 3) O'quv harakatlari. 4) Natijalarni baholash va tahlil qilish. 5) Tashxislash
- A) 1, 4, 5
 - B) 1, 3, 4, 5
 - C) 1, 2, 3, 4, 5
 - D) 1, 2, 3, 4

Quyida qaysi tushunchaga ta'rif berilgan? Bu o'qitishning ijtimoiy holatini tashkil etuvchi barcha tarkibiy qismlar; o'qituvchi va o'quvchi tomonidan yaratilgan psixologik muhit, o'qitish madaniyati va jismoniy muhit; turli ta'lim yondashuvlardan, shu jumladan, sinfni baholash va boshqarish usullaridan, foydalanish uslubi.

- A) Ta'lim metodlari
- B) Ta'lim usullari
- C) Ta'lim muhiti
- D) Ta'lim nazariyasi

O'qituvchi o'quvchilarini hamisha bir birlarini o'zaro hurmat qilishga undaydi. Doimo tortishmasdan o'zaro ahil bo'lishlari kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek o'quvchilarga har qanday faoliyatni amalga oshirishda eng oson yo'ldan borishni maslahat beradi. Quyida o'qituvchi kasb standartining tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish va ta'minlash sohasiga oid qaysi zarur ko'nikmani bajarmoqda?

- A) O'quvchilarni ta'lim va tarbiya jarayoniga jalb qilish, ularning o'quv va bilim faoliyatiga qiziqtirish maqsadida o'quv guruhlarini boshqarish
- B) O'quvchilar jamoasida ishbilarmonlik, do'stona muhitni qo'llab-quvvatlash
- C) Bolalar bilan muloqot qilish, ularning qadr-qimmatini tan olish
- D) O'quvchilarni tenglik, adolat va hurmat tamoyillari asosida boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatish.

O'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil qilishda yordam berish va qo'llab quvvatlash O'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish. Quyida kasb standartining qaysi sohasiga tegishli mehnat harakatlari berilgan?

- A) O'quv jarayonini rejalashtirish
- B) Ta'lim samaradorligini oshirish
- C) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish
- D) Xavfsiz va rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash

#O'qituvchi Otabek har darsdan so'ng o'z dars jarayonini tahlil qiladi. U quyidagilarga e'tibor beradi: mavzuni qanday izohladi, o'quvchilar qanday savollar berdi, qaysi usullar

yaxshi natija berdi, qaysi joyda o'quvchilar charchadi yoki tushunmadi. U bu kuzatuvlar asosida kelgusi dars rejasiga tuzatishlar kiritadi. Otabek o'z fikrlashini va qarorlarini muntazam tahlil qilish orqali dars sifatini yaxshilamoqda.

Savol: Otabekning bu yondashuvi qaysi refleksiya turiga mansub?

- A) Kommunikativ refleksiya
- B) Shaxsiy refleksiya
- C) Intellektual refleksiya
- D) Empatik refleksiya

O'qituvchi darsdan oldin sinfda kichik suhbat o'tkazdi. U o'quvchilarga rostgo'ylik, hurmat, kattalarga yordam berish va sinfdoshlarga mehribonlik ko'rsatish haqida hikoya aytib berdi. So'ng, bu qadriyatlar hayotda qanday ahamiyatga ega ekanini o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qildi. Ushbu vaziyatda qanday tarbiya turi ustuvorlik qiladi?

- A) Aqliy tarbiya
- B) Mehnat tarbiyasi
- C) Axloqiy tarbiya
- D) Estetik tarbiya

Kommunikativ qobiliyat nima degan ma'noni anglatadi?

- A) O'qituvchining o'quvchilar bilan bilim almashish qobiliyati
- B) O'qituvchining ota-onalar va mahalla ahli bilan muloqotda bo'lish qobiliyati
- C) O'qituvchining pedagogik bilimlarga ega bo'lishi
- D) O'qituvchining shaxsiy ishini rejalashtirish

Tarix fani o'qituvchisi yangi mavzuni tushuntirishda barcha o'quvchilar bilan bevosita muloqotda bo'ldi, fikrlarini eshitdi, ularni o'zaro bahsga jalb qildi va dars mobaynida sinfda iliq psixologik muhit yaratildi. Bu qaysi qobiliyatni namoyon etadi?

- A) Mantiqiy qobiliyat
- B) Muloqot qilish qobiliyati
- C) Kinestetik qobiliyat
- D) Ichki qobiliyat

O'z kasbiy bilimlarini, ko'nikma va malakalarni doimiy o'zlashtirib borish xususiyatlari, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda yuqori darajaga erishishni, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyat bu ...

- A) Pedagogik mahorat
- B) Pedagogik muloqot
- C) Pedagogik layoqat
- D) Pedagogik tasavvur

Kommunikativ qobiliyatning rivojlanishida o'qituvchining qanday fazilatlari muhim ahamiyatga ega?

- A) O'qituvchining shaxsiy motivatsiyasi
- B) O'qituvchining ijtimoiy faoliyati
- C) O'qituvchining psixologik bilimlari va muomala madaniyati
- D) O'qituvchining ilmiy tadqiqotlar olib borishi

O'qituvchining muloqot madaniyatini shakllantirishda qanday asosiy faktorlar

ta'sir qiladi?

- A) O'qituvchining pedadodik bilimlari
- B) O'qituvchining ishlash joyining qulayligi
- C) O'qituvchining psixologik bilimlari va o'zini ifoda etish qobiliyatlari
- D) O'qituvchining jismoniy holati

Matematika o'qituvchisi o'quvchilarga murakkab masalalarni bosqichma-bosqich tahlil qilib, sabab-oqibat munosabatlarini anglatadigan savollar orqali ularni tahliliy fikrlashga o'rgatdi. Bu qaysi qobiliyatni aks ettiradi?

- A) Mantiqiy qobiliyat
- B) Kommunikativ qobiliyat
- C) Voqealarni ko'ra olish qobiliyati
- D) Kinestetik qobiliyat

O'qituvchi har darsdan so'ng o'z darsini tahlil qiladi, boshqa tajribali ustozlarning uslublarini o'rganib, ularni o'z sharoitiga moslab qo'llaydi. U maktabda o'tkaziladigan barcha tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etadi va o'quvchilar yutuqlariga erishadi.

Bu o'qituvchining faoliyati qaysi turdagi o'qituvchiga xos?

- A) Novator o'qituvchi
- B) Ijodkor o'qituvchi
- C) Ilg'or o'qituvchi
- D) Malakali o'qituvchi

Tug'ma qobiliyat nima deb ataladi?

- A) Xotira
- B) Mohirlik
- C) Daholik
- D) Zehn

..... bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayoni mazmunidir.

- A) Ta'lim usuli
- B) Ta'limning texnik vositalari
- C) Ta'lim usuli
- D) Pedagogik texnologiya

Qaysi olim "Tarbiya bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning amaliy jarayonlarining o'z ichiga olishi kerak" deb yozadi?

- A) Skinner
- B) Herbert Spenser
- C) Bryuner
- D) Alisher Navoiy

O'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda qanday yo'nalishlarda olib boriladi?

1. O'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi;
2. O'qituvchining ruhiy psixologik tayyorgarligi;
3. O'qituvchining ijtimoiy - pedagogik va ilmiy - nazariy jihatdan tayyorgarligi;
4. O'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi

- A) 1, 2
- B) 1, 4, 3
- C) 1,2,3,4
- D) 1, 4

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

- A) Tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish.
- B) Shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, kreativlik, malaka, kompetensiya, ma'lumot, rivojlantirish.
- C) Shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish.
- D) Shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, shakllantirish, rivojlantirish.

Pedagogika fanining asosiy tushunchalari

- A) Ta'lim, tarbiya, ma'lumot
- B) Ta'lim, tarbiya, rivojlantirish
- C) Tarbiya, dars
- D) Ta'lim, rivojlantirish

O'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi yo'nalishlarini belgilang?

- 1) O'qituvchining shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi.
 - 2) O'qituvchining ruhiy – psixologik tayyorgarligi.
 - 3) O'qituvchining ijtimoiy – pedagogik va ilmiy – nazariy jihatdan tayyorgarligi.
 - 4) O'qituvchining jismoniy tayyorgarligi
 - 5) O'qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi
- A) 1,2,4,5
 - B) 2,3,4,5
 - C) 1,2,3,5
 - D) 1,2,3,4

O'qituvchining o'z kasbini, bolalarni sevishi, ziyrakligi, hozirjavobligi, vazminligi, pedagogik nazokati, tasavvuri, qobiliyati, tashkilotchiligi, notiqlik madaniyati, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy la'eqatliligi, ma'naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo'llay olishi, kasbiy ma'lumotni muntazam oshirishga nisbatan intilishi uning qanday fazilatlari hisoblanadi?

- A) O'qituvchilarning kasbiy xususiyatlariga
- B) O'qituvchilarning shaxsiy fazilatlari
- C) O'qituvchilarning insoniylik fazilatlari
- D) O'qituvchilarning psixologik fazilatlari

Pedagogik mahoratni tashkil etuvchi komponentlar qaysilar?

- 1) o'qituvchilik kasbiga sadoqat
 - 2) o'z fanining o'qitish metodikasini mukammal bilishi
 - 3) pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi
 - 4) pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay bilishi
- A) 1,2,4
 - B) 2,3,4
 - C) 1,3,4
 - D) 1,2,3,4

Pedagogning shaxs ongi mohiyati va vazifalarini, shu jumladan, qadriyatlari, qiziqishlari, rag‘batlantiruvchi omillar, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qilish, hissiy ta’sirlanish, xatti-harakatlari va boshqalarning mohiyatini anglab yetishi bu....

- A) Pedagogik refleksiya
- B) Pedagogik relaksatsiya
- C) Pedagogik mahorat
- D) Pedagogik takt

#.....shaxs ijtimoiylashuvi, ijtimoiy meydoridan og‘ishishning pedagogik diagnostikasi, korrektsiyasi va reabilitatsiyasi hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish masalalarini tadqiq etadi?

- A) Ta’lim menejmenti
- B) Ijtimoiy pedagogika
- C) Oila pedagogikasi
- D) Jamiyat pedagogikasi

Nima uchun o‘quvchilarning ta’limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘qitish usullari va yondashuvlarini tanlash kerak?

- A) Ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarish uchun
- B) O‘quv jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish uchun
- C) Ta’lim samaradorligini ta’minlash uchun
- D) O‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish uchun

Tarix fani o‘qituvchisining darsini bolalar intiqlik bilan kutishadi. Chunki o‘qituvchi har bir darsda bolalarni o‘ziga jalb qiladigan tarixiy hikoyalarni so‘zlab beradi. Bu hikoyalar orqali bolalar buyuklik sari yetaklaydi. Bunday holatda o‘qituvchida qaysi qobiliyat namoyon bo‘ladi?

- A) Perseptiv qobiliyat
- B) Bilish qobiliyati
- C) Konstruktiv qobiliyat
- D) Kinestetik qobiliyat

Kommunikativ nutqning muvaffaqiyatli bo‘lishi o‘qituvchi o‘zida notiqlik san’atiga xos qator maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish talab qilinadi. Quyida berilganlardan o‘zini boshqara olish qobiliyatining asosiy jihatlarini aniqlang.

- 1) O‘z-o‘zini tinchlantirish va qobiliyatli vaziyatlarda bardoshli bo‘lish
- 2) Jamiyandugi bugungi hodisalarni o‘z o‘tmishdagi voqealar va jarayonlar bilan bog‘lash
- 3) Maqsadlarga erishishda ishtiyoq va qat’iyatni saqlash
- 4) O‘z hissiy va intellektual holatini anglash va rivojlantirish

- A) 1,2,3,4
- B) 1,3,4
- C) 1,2,4
- D) 3,4

Matematika fani o‘qituvchisi Sahobiddin aka darslarni turli metodlar yordamida qiziqarli tushuntirishi bilan birga, o‘qituvchining irodasi, qat’iyati va o‘z fikrlarini erkin bayon qilishi bilan ajralib turadi.

Bunda matematika fani o‘qituvchisi Sahobiddin akada qaysi qobiliyat turi namoyon bo‘lmoqda?

- A) Muloqot qilish qobiliyati
- B) Eshitish va his qilish qobiliyati
- C) Shaxsning ichki qobiliyati qobiliyat

D) Kinestetik qobiliyat

Tarix fani o'qituvchisi Jasur akaning darsini bolalar intiqlik bilan kutishadi. Chunki Jasur aka har bir darsda bolalarni o'ziga jalb qiladigan tarixiy hikoyalarni so'zlab beradi. Bu hikoyalar orqali bolalarni buyuklik sari yetaklaydi. Bunday holatda tarix fani o'qituvchisi Jasur akada qanday qobiliyat namoyon bo'lmoqda?

A) Shaxsiy qobiliyat

B) Mantiqiy qobiliyati

C) Bilish qobiliyat

D) Konstruktiv qobiliyat

Har bir o'quvchisi nimaga qodir ekanligini bilgan ustoz navbatdagi tadbirga tayyorgarlik vaqtida qiynalmadi. U o'quvchilarning bilimi va mahoratiga yarasha rollar ajratib, vazifalarni belgilab berdi. Tadbirga o'quvchilar mustaqil tayyorgarlik ko'rib, uni ko'tarinki ruhda o'tkazdilar. Tadbirdan o'quvchilarning o'zlari, ota-onalar, maktab rahbariyati ham mamnun bo'ldi.

Mazkur holatda pedagogda qanday qobiliyat namoyon bo'lmoqda

A) Muloqot qilish qobiliyati

B) Shaxsning ichki qobiliyati

C) Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati

D) Kinestetik qobiliyat

Fizika o'qituvchisi darslarida 7-A sinf doim faol bo'lib, yaxshi bilim va natijalar ko'rsatadi. Bunda o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot qilishi, ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o'zlashtirgan holda samarali qo'llashi, hozirgi zamon pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishi yaxshi qurol bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur pedagogda qaysi qobiliyat turi namoyon bo'lmoqda ?

A) Perseptiv

B) Didaktik

C) Empatik

D) Konstruktiv

Moslashtiring

1. O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish

2. Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik.

a) Turli xil muhitda har xil emosional holatlardagi odamlar bilan aloqa qila bilish

b) Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o'quv rejalarini ishlab chiqish

c) O'zaro darslarda qatnashadi, ularni tahlil qiladi, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanadi

A) 1-c, 2-a

B) 1-a, 2-b

C) 1-a, 2-c

D) 1-b, 2-a

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining 5 ta tarkibiy qismi qaysi qatorda keltirilgan?

A) shaxs, davlat va jamiyat, oliy talim, fan, ishlab chiqarish.

B) Inson, davlat va jamiyat, uzluksiz talim, fan, ishlab chiqarish.

C) Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz talim, san'at, ishlab chiqarish.

D) Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz talim, fan, ishlab chiqarish.

Pedagogik jarayonda ishtirok etadigan tizim tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?

- A) Pedagoglar
- B) Tarbiyalanuvchilar
- C) Tarbiyaviy shart sharoitlar
- D) Barchasi

Pedagogik faoliyatda nima o'quvchilarga zamon talablar asosida ta'lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'minlash tizimi sifatida namoyon bo'ladi?

- A) Madaniyat
- B) Muloqot
- C) Shirinso'zlik
- D) Muomala

Pedagogika fanining Analitik vazifasi sanang.

1. ta'lim va tarbiya jarayoni mazmuni 2.ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati;
3. sabab-oqibat aloqadorligini o'rganish 4.ta'lim siyosatini samarali boshqarishni ta'minlash

- A) 1,2,3,4
- B) 1,2,3
- C) 1,2,4
- D) 2,3,4

Pedagogika fanining qanday vazifalari mavjud? 1.analitik vazifa 2.prognostik vazifa
3.tashkiliy vazifa 4.metodologik vazifa

- A) 1,2,3,4
- B) 1,2,3
- C) 1,2,4
- D) 2,3,4

Pedagogika fanining metodologik vazifasini aniqlang.

1. pedagogik fanlarning umumnazariy asoslarini aniqlashtirish
2.yangi pedagogik texnologiya, innovatsion shakl va vositalarni ishlab chiqish; 3.ta'lim siyosatini samarali boshqarishni ta'minlash.

- A) 1,2,3
- B) 1
- C) 2
- D) 3

Didaktikaning obyekti nima?

- A) Ta'lim berish
- B) Bilimlarni baholash
- C) Dars jarayonida nazorat qilish
- D) Faqat nazariy bilim berish

Didaktikaning predmeti nima?

- A) O'rgatish va o'rganish jarayoni
- B) Ta'lim natijalarini o'lchash
- C) Pedagogning mahoratini oshirish
- D) Talabalarni intizomga o'rgatish

Ta'lim jarayonida o'qitishning asosiy ustuni nima bo'lib kelgan?

- A) Qo'llanmalar va amaliy maslahatlar
- B) Talabalar mustaqil o'rganishi
- C) Faqat darsliklar

D) Faqat an'anaviy usullar

O'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.

A) Ta'lim

B) O'qitish

C) O'rganish

D) Metod

Qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

A) O'qitish

B) O'rganish

C) Malaka

D) Shakl

Anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.

A) O'rganish

B) O'qitish

C) Malaka

D) Metod

Dastlabki tafakkur bosqichi. O'quvchi atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalarni biladi, eslaydi, bayon qiladi. Bu Blum taksonomiyasining qaysi bosqichiga xos?

A) Tahlil

B) Bilish

C) Qo'llash

D) Baholash

Biologiya fani o'qituvchisi o'quvchilarga yurak tuzilmasi bo'yicha asosiy atamalarni aytib berishni topshirdi: yurak kamerasi, qon aylanishi, aorta, vena kabi tushunchalarni yod olish vazifasi berildi. Dars so'ngida o'qituvchi: "Yurakning chap bo'lagi nima deyiladi?" kabi savollar berdi. Ushbu faoliyat Blumning qaysi bosqichiga mos keladi?

A) Tushunish

B) Amaliyotga qo'llash

C) Bilish

D) Tahlil

"Dars vaqtini oqilona tashkillashtirish, darsning maqsad, shakl va usullarini aniqlash" o'qituvchilar kasbiy kompetensiyasining qaysi mehnat vazifasidagi ko'nikmalariga kiradi?

A) Ta'lim samaradorligini ta'minlash

B) O'quv va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish

C) O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish

D) O'quv jarayonini rejalashtirish

Qaysi holatlarda namunaviy o'quv rejalarga o'zgartirish kiritish mumkin?

A) Yuqori tashkilot va maktab ma'muriyati buyrug'iga asosan

B) Maktab ma'muriyati va metodik birlashma takliflariga ko'ra

C) Ota-onalar va o'quvchilarning ehtiyojlari va talablariga binoan

D) O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda

"Ta'lim" tushunchasining mohiyati nima?

A) Bolani jismonan tarbiyalash

B) Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish

C) Faqat kitob o‘qish

D) O‘yin orqali dam olish

O‘qitishning asosiy maqsadi nima?

A) O‘quvchini imtihondan o‘tkazish

B) Bilim, tushuncha, ko‘nikma va dunyoqarashni shakllantirish

C) Faqat darslikni yodlash

D) O‘qituvchining maoshini oshirish

“Didaktika” nima?

A) Tarbiya nazariyasi

B) O‘qitish haqidagi ta’limot

C) Psixologik testlar to‘plami

D) Maktab binosini loyihalash

Ta’lim jarayonida o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga oluvchi tamoyil?

A) Ilmiylik

B) Tizimlilik

C) Individual yondashuv

D) Ona tili tamoyili

O‘qituvchining asosiy vazifasi nima?

A) Dars rejalarini tuzish

B) O‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va dunyoqarashga ega qilish

C) Faqat imtihon o‘tkazish

D) Maktab hujjatlarini to‘ldirish

“Ta’limda o‘yin elementlaridan foydalanish” qaysi yosh guruhida samarali?

A) Faqat kattalar

B) O‘rta yosh

C) Maktabgacha va boshlang‘ich sinf

D) Faqat universitet talabalari

Ta’lim jarayonida o‘qitishning asosiy ustuni nima bo‘lib kelgan?

A) Qo‘llanmalar va amaliy maslahatlar

B) Talabalar mustaqil o‘rganishi

C) Faqat darsliklar

D) Faqat an’anaviy usulla

O‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, kompetensiya va fi krlash usullari tizimi.

A) Ta’lim

B) O‘qitish

C) O‘rganish

D) Metod

Didaktikaning obyekti nima?

A) Ta’lim berish

B) Bilimlarni baholash

C) Dars jarayonida nazorat qilish

D) Faqat nazariy bilim berish

Didaktikaning predmeti nima?

A) O‘rgatish va o‘rganish jarayoni

B) Ta’lim natijalarini o‘lchash

C) Pedagogning mahoratini oshirish

D) Talabalarni intizomga o'rgatish

O'quv jarayonida bilimlarni amalda qo'llash qanday natijaga olib keladi?

A) Bilimlarni unutishga

B) Bilimlarning yuzaki bo'lishiga

C) Bilimlarning chuqurlashuviga

D) Faqat yod olishga

O'quv jarayonida bilish faoliyatining oxirgi bosqichi sifatida ko'pincha qaysi jarayon olinadi?

A) Idrok etish

B) Nazorat va baholash

C) Mustahkamlash

D) Tushunish

O'quv jarayonida bilimlarni amalda qo'llash qanday natijaga olib keladi?

A) Bilimlarni unutishga

B) Bilimlarning yuzaki bo'lishiga

C) Bilimlarning chuqurlashuviga

D) Faqat yod olishga

O'quv jarayonida bilish faoliyatining oxirgi bosqichi sifatida ko'pincha qaysi jarayon olinadi?

A) Idrok etish

B) Nazorat va baholash

C) Mustahkamlash

D) Tushunish

O'qitishning og'zaki usullariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

A) Mashq

B) Suhbat

C) Amaliy ish

D) Ko'rsatma

O'quvchilarga sodda voqealarni qisqa va ravon tarzda tushuntirish usuli qanday ataladi?

A) Ma'ruza

B) Hikoya

C) Suhbat

D) Tushuntirish

O'qituvchi o'quvchilarga yangi tushunchalarni sodda qilib izohlab bersa, bu qaysi usulga kiradi?

A) Suhbat

B) Hikoya

C) Tushuntirish

D) Ma'ruza

O'qitishning og'zaki usullari asosan qanday vazifani bajaradi?

A) Bilimlarni qo'llashni o'rgatadi

B) Bilimlarni og'zaki tarzda yetkazadi

C) Bilimlarni tajriba orqali shakllantiradi

D) Ko'rgazmali vositalar orqali ko'rsatadi

O'qituvchi va o'quvchi faoliyatining uyg'unligi ta'lim jarayonida qanday rol o'ynaydi?

A) Bilimlarni yuzaki shakllantiradi

B) O'quvchining passivligini oshiradi

C) Ta'lim samaradorligini ta'minlaydi

D) Faqat nazoratni kuchaytiradi

O'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda rivojlanishiga hissa qo'shadigan ta'lim maqsadlari va vazifalarini belgilash. Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, shu jumladan interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot va sinfdan tashqari ishlarida qo'llash. Quyida kasb standartining qaysi sohasi mehnat harakatlari berilgan.

A) O'quv jarayonini rejalashtirish

B) Ta'lim samaradorligini oshirish

C) O'zlashtirishni baholash va qayta aloqani ta'minlash

D) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish.

Biologiya fani o'qituvchisi, faoliyatli yondashuvning asosiy tamoyillari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar turlari va uslublari, bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilik asoslari, ta'lim to'g'risidagi qonunlar va umumiy ta'limning davlat ta'lim standartlarini yaxshi o'zlashtirgan. Quyida o'qituvchi kasb standartining qaysi sohasiga amal qilmoqda?

A) Ta'lim samaradorligini ta'minlash

B) O'quv jarayonini rejalashtirish

C) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish

D) O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish

Ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish mehnat vazifalariga qaysilar kiradi?

1) Mos lavozimlar

2) Ta'lim va o'qitishga qo'yiladigan talablar

3) Amaliy ish tajribasiga qo'yiladigan talablar

4) Faoliyatni amalga oshirishga ruxsat berish uchun maxsus talablar

5) Kasbiy rivojlanish va hamkorlik

A) 1,2,3,4,5

B) 1,3,4,5

C) 1,2,3,4

D) 2,3,4,5

O'qituvchi ta'lim (pedagogik) tizimlarini tarixi, nazariyasi, qonuniyatlari, barpo etish tamoyillari va faoliyat yuritilishi, ta'limning shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini biladi. Quyida o'qituvchi faoliyatida kasb standartining qaysi sohasi namoyon bo'lmoqda?

A) O'quv jarayonini rejalashtirish

B) Ta'lim samaradorligini oshirish

C) O'zlashtirishni baholash va qayta aloqani ta'minlash

D) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish.

O'qituvchi o'z darslarida hamisha AKT dan foydalanadi, darslar tushunarli bo'lishi uchun turli xil didaktik vosidalarini samarali qo'llaydi, turli xil interfaol metodlarni o'rganib chiqib doimiy ulardan foydalanadi. Quyida o'qituvchi kasb standartining qaysi sohasiga amal qilmoqda?

A) Ta'lim samaradorligini ta'minlash

B) O'quv jarayonini rejalashtirish

C) Tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish

D) O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish